

DFF¹ – Eurasia Bottlers

Mamlakat: O'ZBEKISTON

Loyiha raqami: 54145

Biznes sektor: Agrobiznes

Bildirgi turi: XUSUSIY

Ekologik toifasi: B

Maqqulanish sanasi: 2024-yil, 13-fevral

Holati: Maqqulandi

Loyihaning qisqacha mazmuni (PSD) chop

etilgan sana: 2024-yil, 21- fevral

Axborotdan foydalanish to'g'risidagi Direktivaning 1.4.2 (iii) bo'limiga ko'ra: "Bank rahbariyati tomonidan tasdiqlangan loyihalar uchun Direktorlar kengashi tasdiqlash vakolatini topshirgan bo'lsa, YTTBni ta'sis etish to'g'risidagi Bitimning 13 (iii) moddasiga muvofiq, PSD Bankning a'zo-mamlakatiga e'tirozsiz xabar berish muddatining boshida oshkor qilinishi kerak.

Loyiha tavsifi

O'zbekistondagi yetakchi mahalliy energetik ichimliklar ishlab chiqaruvchi Eurasia Bottlers kompaniyasiga 15 million yevrogacha bo'lgan katta kafolatli kreditni taqdim etish. Mablag'lar, Toshkent shahridagi yangi zavodini qurish va qo'shimcha yangi ichimlik quyish liniyalarini o'rnatish hisobiga, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini oshirishni moliyalashtiradi.

Loyihaning maqsadlari

Loyiha mahalliy ishlab chiqarishni kengaytirish va O'zbekistonga energetik ichimliklar importini o'rnini bosadigan yangi ichimlik quyish liniyalarini tashkil etishni qo'llab-quvvatlash orqali kompaniyaning raqobatbardoshligini oshiradi. Loyiha, shuningdek, O'zbekistondagi birlamchi yashil sanoat binolaridan birini qurish va uni yangi BREEAM In-Use (Good) sertifikatini olishga ko'maklashadi. Kompaniya, shuningdek, energiya sarfini kamaytiradigan va o'zining energiya ehtiyojlarini qisman qondiradigan energiya tejamkor va qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarish texnologiyalarini sotib oladi va o'zlashtiradi.

O'tish davri ta'siri

ETI balli: 80

Loyiha quyidagilarni qo'llab-quvvatlaydi:

- Birlamchi sifat - "Raqobatbardosh": mahsuldorlik va rentabellikni oshirish va o'sib borayotgan mahsulotga talabni qondirish va import o'rnini bosish uchun ishlab chiqarish hajmini kengaytiradigan uchta yangi energetik ichimlik quyish liniyasini tashkil etish orqali Kompaniyaning raqobatbardoshligini oshirish.
- Ikkilamchi sifat - "Yashil": BREEAM In-Use (Good) bo'yicha sertifikatlangan ishlab chiqarish zavodini qurish va energiya tejamkor texnologiyalarni, shu

¹ To'g'ridan to'g'ri moliyalashtirish dasturi

jumladan suvni tejovchi uskunalarni sotib olish orqali Kompaniyaning energiya va resurslar samaradorligini oshirish.

Mijoz haqida ma'lumot

EURASIA BOTTLERS MChJ

MChJ "Eurasia Bottlers" 2020 yilda tashkil etilgan bo'lib, O'zbekistonda alkogolsiz energetik ichimliklar ishlab chiqaruvchi yetakchi kompaniya hisoblanadi. Kompaniya 2021 yildan beri Carlsberg litsenziyasi ostida "Flash Up" energetik ichimliklar ishlab chiqarib kelmoqda.

YTTB moliyaviy mablag'lari

15,000,000.00 yevro

Kompaniyaga ikki transhda 15 million yevro miqdorida katta kafolatlangan kredit.

Loyihaning umumiy qiymati

EUR 32,400,000.00

Loyihaning umumiy qiymati 32,4 million yevroni tashkil etadi va shundan 17,4 million yevro Kompaniya tomonidan ajratiladi.

Bankning qo'shimchalikligi

Moliyalashtirish strukturasi: YTTB, mahalliy banklarning amaliyotida mavjud bo'lmagan moslashuvchan va riskga asoslangan foiz marjasini taklif qiladi.

Standartlarni joriy qilish: Bank ishtirokida, Kompaniya va MChJ "Inter Food Plus" Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) va shu bilan bog'liq biznes amaliyotlarni o'zlashtirish va yashil sertifikatlashtirish orqali o'zlarining moliyaviy standartlarini yaxshilaydilar. Bundan tashqari, Kompaniya sifat menejmenti va oziq-ovqat xavfsizligini boshqarish tizimlarini joriy etishda, Bankning Kichik biznesga maslahat yordamidan foydalandi. Bularning barchasi Kompaniyaning bozordagi ulushini yanada oshirishga, ilg'or tajribalar bilan hamnafas bo'lishiga va faoliyatining chidamligini oshirishga yordam beradi.

Ekologik va ijtimoiy xulosa

B toifa (ESP 2019). Alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqarish bir qator ekologik va ijtimoiy ta'sirlar bilan bog'liq bo'lib, ular yaxshi tushunilgan va standart ekologik va ijtimoiy boshqaruv harakatlari orqali boshqarilishi mumkin. Kompaniyaning ishlab chiqarish obyektlari Toshkent shahrining boshqa sanoat tarmoqlari va turar-joy binolari bilan o'ralgan sanoat hududida joylashgan. Alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqarish mahalliy aholiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan sezilarli tashqi ta'sirlarni keltirib chiqarmaydi. Kompaniya asosiy ekologik va ijtimoiy ta'sirlarni boshqarish uchun yetarli xodimlarga ega va atrof-muhit, sog'liq va xavfsizlik va mehnatni boshqarish bo'yicha milliy talablardan xabardorligi va ularga muvofiqligini tasdiqlovchi dalillarni taqdim etdi. Bundan tashqari, kompaniya Carlsberg kabi yirik brendlar bilan ishlash orqali ularning standartlariga rioya qilishi shart va litsenziya shartnomasida ushbu standartlarga muvofiqlikni ta'minlash uchun kafolatlar mavjud. Yangi binolarni qurish uchun Kompaniya tomonidan zarur bo'lgan yer uchastkalari aniqlangan va Kompaniya yer

maqomining qishloq xo'jaligi maqsadlaridan umumiy sanoat maqsadlariga o'tkazilishini kutmoqda. Ushbu maqam o'zgarishi 2024-yilning 1-choragi oxirigacha kutilmoqda va hokimiyatdan zarur ruxsatnomalar olish jarayonining bir qismi sifatida, qurilish boshlanishidan oldin atrof-muhitga ta'sir bahosi tayyorlanadi. Maqsad energiya samaradorligi, suv va chiqindi suvlarni boshqarish va suvni qayta ishlash masalalarini hal qilish uchun bir qator eng yaxshi amaliyot elementlarini o'z ichiga olgan yangi obyektlar uchun BREEAM In-Use (Good) sertifikatiga erishishdir. Sog'liqni saqlash va xavfsizlik hozirda milliy talablar asosida boshqariladi va Kompaniya yillik sog'liqni saqlash va xavfsizlik rejasini ishlab chiqadi va xodimlarni tegishli sog'liq va xavfsizlik masalalari bo'yicha muntazam ravishda o'qitadi. Kompaniya nol jarohatlar kontseptsiyasiga amal qiladi. Kompaniyada halokatli baxtsiz hodisalar ro'y bermagan va har qanday baxtsiz hodisalar tekshiriladi va kerak bo'lganda kuzatiladi. Kadrlar (HR) masalalari yana milliy qonunlar asosida maxsus guruh tomonidan boshqariladi va Kompaniya 2024-yil 1-chorak oxirigacha kuchga kirishi reja qilingan Jamoaviy bitimni ishlab chiqish jarayonida ishlayapti. Va nihoyat, Kompaniya asosan mahalliy hamjamiyat tomonidan moliyaviy va ijtimoiy yordam so'rovlariga yo'naltirilgan jamoatchilik bilan aloqa qilish va muloqot qilish jarayoniga ega. Masalan, Loyiha doirasida ekologiyaga ta'sirni baholash va jamoaviy bitim tuzish bo'yicha Kompaniya tomonidan o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni ta'minlash va ilg'or xalqaro amaliyotga muvofiq boshqaruv tizimlarini yanada rivojlantirish uchun Ekologik va ijtimoiy harakatlar rejasini (ESAP) ishlab chiqildi va Kompaniya bilan kelishib olindi. Kompaniya har yili ESAP va umuman Ekologik va ijtimoiy masalalarining bajarilishi to'g'risida hisobot berishi kerak bo'ladi.

Texnik hamkorlik va grantlar orqali moliyalashtirish

Texnik Hamkorlik (TH) mablag'lari quyidagicha sarf qilinadi: (i) Bank uchun maqbul bo'lgan auditor tomonidan IFRS bo'yicha dastlabki auditni o'tkazish; (ii) huquqiy-iqtisodiy ekspertiza (JCEF mablag'lari orqali); (iii) Kreditning yashil komponentlarini moliyalashtirish, asosan BREEAM In-Use (Good) sertifikatini olish va (iv) yangi binolarni tugallanganligini tasdiqlash va baholash uchun mustaqil maslahatchi xizmalarini qoplash. Shuningdek, sanksiyalar siyosatini joriy etish bo'yicha maslahat guruhini qo'llab-quvvatlash. Shu bilan birga, energiya va resurslarni tejaydigan uskunalarni o'rnatishni qo'llab-quvvatlash uchun GEF tomonidan beriladigan 174 124 AQSh dollari miqdoridagi FINTECC granti ham mavjud.

Kompaniyaga murojaat qilish uchun ma'lumot

Yuriy

Nuritdinov

eurasiabottlers@gmail.com

+998991152900

<https://interfoodplus.uz/>

Salar GES mikrorayoni, Salar shaharchasi, Qibray tumani, Toshkent viloyati, O'zbekiston

PSD oxirgi yangilangan sana:

21 Feb 2024

O'tish davri nima

O'tish davri ta'sirini baholash bo'yicha YTTB yondashuvi haqidagi qo'shimcha ma'lumotni [mana bu havoladan](#) olishingiz mumkin.

Loyihalarda ishtirok etish uchun imkoniyatlar

Loyihada yoki xaridlarda ishtirok etish uchun mijoz kompaniyaga murojaat qiling.

YTTB bilan (xaridlarga oid bo'lmagan masalalarda) hamkorlik qilish uchun quyidagi telefon yoki elektron pochta orqali bog'laning:

Tel: +44 20 7338 7168

E-manzil: projectenquiries@ebrd.com

Davlat sektoridagi loyihalar uchun [YTTB xaridlari](#) sahifasiga o'ting:

Tel: +44 20 7338 6794

E-manzil: procurement@ebrd.com

Umumiy ma'lumotlar

Aniq so'rovlar [YTTB so'rovlar shakli](#) dan foydalangan holda berilishi mumkin.

Ekologik va ijtimoiy siyosat (ESP)

YTTB o'zining "ekologik jihatdan mas'ul va barqaror rivojlantirish" tashabbusini ilgari surishda [Ekologik va ijtimoiy siyosat](#) va uning tarkibiy qismi bo'lgan loyiha talablari (PR) Bank loyihasini amalda qo'llash tartibini belgilab beradi. ESP va PR tegishli milliy qonunchilik doirasida Bank mijozlarining keng jamoatchilikka axborot berishi va maslahatlashishini ta'minlash, shuningdek manfaatdor tomonlarning xavotirlari va shikoyatlarini, ayniqsa, ekologik va ijtimoiy muammolarni ko'rib chiqish va hal qilishga yordam beradigan mexanizmni yaratishdagi aniq talablarni o'z ichiga oladi. Loyihaning ekologik va ijtimoiy risklarni va ta'sirining mohiyati va ko'lamidan kelib chiqqan holda, zarurat tug'ilganda, YTTB o'z mijozlaridan qo'shimcha ravishda loyihalarning risklarni va ta'sirlari haqida ma'lumotni oshkor qilishni, shuningdek, manfaatdor tomonlar bilan batafsil fikr almashish va muammolar yuzasidan choralar ko'rilishini talab qiladi.

Bu sohada YTTBning tajribasi bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar ESPning quyidagi [sahifasida](#) keltirilgan.

Ish faoliyatidagi halollik va belgilangan me'yorlarga rioya qilish

YTTBning muvofiqlik nazorati boshqarmasi (OCCO) Bankda mas'uliyatli boshqaruvga ko'maklashish bilan birga Bank faoliyatining barcha jabhalarida eng yuqori standartlarda ish olib borilishini va barcha jarayonlar ilg'or xalqaro tajribalarga muvofiq bo'lishini ta'minlaydi. Bankning barcha mijozlari uchun ularning ish faoliyatidagi halolligini tekshirishdan maqsad, Bank loyihalari uchun qabul qilinishi mumkin bo'lmagan huquqiy va nufuzga oid risklarga yo'l qo'yilmaslikdan iborat. Bank nuqtai nazariga ko'ra, loyihani dastlabki baholash va tasdiqlash bosqichida muammoli jihatlarni aniqlash va ularni bartaraf qilish Bank faoliyati nufuziga putur yetkazmaslikning eng samarali vositasidir. OCCO ushbu profilaktika chora-tadbirlarida muhim ahamiyatga egaligi bilan birga investitsiya qilinganidan keyingi davrda Bankning nufuziga xavf soladigan risklarni nazorat qilishga yordam beradi.

OCCO, shuningdek, YTTB tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalar doirasidagi firibgarlik, korrupsiya va lavozimni suiiste'mol qilish bo'yicha ma'lumotni tekshiruvchi mas'ul hisoblanadi. Agar kimningdir Bank ichida yoki undan tashqarida firibgarlik yoki korrupsiya holatlari kuzatilayotganligi haqida gumoni bo'lsa, u muvofiqlik nazorati boshqarmasi boshlig'iga bu holat haqida yozma tarzda compliance@ebrd.com elektron manzili orqali xabar qilishi lozim. Barcha bildirilgan daliliy ma'lumotlar tegishli choralar ko'rish uchun OCCO tomonidan ko'rib chiqiladi. Barcha xabarlar, shu jumladan anonym tarzidagi xabarlar ham tekshirib chiqiladi. Bu turdagi xabarlar istalgan tilda, jumladan Bank faoliyat ko'rsatayotgan mamlakatdagi rasmiy tilda tayyorlanishi mumkin. Bunday ma'lumotlar yaxshi niyatni ko'zlashi maqsadga muvofiqdir.

Axborotdan erkin foydalanish siyosati (AIP)

2020-yilning 1-yanvarida kuchga kirgan IAP YTTBning strategiyalari, siyosatlari va amaliyotlarini yaxshiroq tushunish va bilishga ko'maklashish uchun manfaatdor tomonlarga ma'lumotlarni ochiqlash bilan birga maslahatlashuvlar tartibini belgilab beradi. YTTB veb-saytidan qanday ma'lumotlar olish mumkinligini bilish uchun [Axborotdan foydalanish siyosati](#) sahifasiga o'ting.

Muayyan savollaringizni [YTTBning ma'lumot so'rovi](#) orqali yuborishingiz mumkin.

Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi (IPAM)

Agar jismoniy yoki yuridik shaxslarning ekologik-ijtimoiy sohadagi yoki axborotni oshkor qilish borasidagi xavotirlarini (masalan, loyiha darajasida mijozlar tomonidan yaratilgan shikoyatlar mexanizmi yoki Bankning amaliyot boshqaruvi bilan bevosita o'zaro aloqa qilish orqali) qanoatlantirishga bo'lgan urinishlari samarasiz bo'lsa, ular YTTBning hisobdorlik mexanizmi ya'ni loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi yordamida (IPAM) o'zlarining o'sha xavotirlarini bildirishlari mumkin.

Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi (IPAM), arizachilarning fikriga ko'ra, zarar yetkazishga ulgurgan yoki kelajakda zarar yetkazishi mumkin bo'lgan loyihaning muammolarini mustaqil ravishda baholaydi. Ushbu mexanizmning vazifalari quyidagilardan iborat: - ekologik-ijtimoiy va axborotni oshkor etish bo'yicha muammolarni hal qilish uchun loyiha ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rnatish va muloqotlarni olib borish; - Bank tomonidan ishlab chiqilgan [Ekologik va ijtimoiy siyosat](#) talablariga, shuningdek loyihaga oid tegishli [Axborotdan erkin foydalanish siyosati](#) qoidalariga rioya qilinishini baholash; - zarurat tug'ilganda, ushbu mezonlarga rioya qilmaslik holatlarini bartaraf etish, kelgusida Bank tomonidan ularni buzish holatlariga nisbatan ko'riladigan choralarini ko'zda tutish.

IPAM va uning vakolatlari haqida batafsil ma'lumot olish, ko'rib chiqilishi kerak bo'ladigan [shikoyatlarni jo'natish](#) uchun [Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi veb-saytiga](#) kirishingiz yoki tavsiyalar olish hamda IPAM haqida qo'shimcha ma'lumot olish va shikoyat jo'natish uchun ipam@ebrd.com elektron pochta orqali biz bilan bog'lanishingiz mumkin.